

ILMIY TADQIQOT ISHI (MAQOLA)DA HAVOLA BERISH

Tojiboyeva Mushtariy Rustam qizi

Navoiy davlat pedagogika instituti

O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tadqiqotchiga ilmiy tadqiq ishi (maqola)ni shakllantirishda unga havolalarni qanday berish bo‘yicha batafsil ko‘rsatmalar berilgan.

Kalit so‘zlar: Havola, faktik material, nashr manbasi, arxiv materiallari, qisqartmalar, tadqiq hodisalari, dalillash.

Ilmiy ish (maqola)ni shakllantirishda muhim masalalardan bir **havola berish**. Havola berish tadqiqotlarda, asosan, ikki xil bo‘ladi:

- material, tadqiq hodisalari, tajriba-sinov ishlariga havolalar;
- ilmiy tadqiqotlar, tadqiqotchilar fikrlariga havolalar.

Masalan biz maqola yozayotganimizda adiblarning asarlaridan, deylik, har xil qonun hujjatlari matnlaridan, gazeta matnlaridan, ilmiy tadqiqot matnlaridan fikrimizni faktik dalillash uchun misollar olamiz. Bu birinchi havola turiga kiradi. Shu bilan birqalikda biz tadqiqotni yozish jarayonida olimlarning qarashlariga tayanamiz, ularning fikrlariga suyanamiz. Shuning uchun ulardan iqtiboslar olamiz va iqtiboslarni havolalar bilan shakllantiramiz.

I. Materiallar manbai, odatda, faktik material keltirilgach, qavslarda - juda ko‘p hollarda shartli qisqartmalar bilan beriladi. Masalan: Qodiriylashtirishda moziy so‘zi “o‘tmish”, “o‘tgan zamon” ma’nosida qo‘llanadi: “Moziyg‘a qaytib ish ko‘rishlik xayrlik, deydilar” degan jumladarni yozganimizdan so‘ng fikrimiz asossiz bo‘lmashligi uchun (O‘.K-10) shaklida, qisqartma holatida berish maqsadga muvofiq. Agar biz havola bermasak, manbaning sahifalarini manba haqidagi ma’lumotlarni tadqiqotda aniq aks ettirmasak, ilmiy o‘g‘irlikka yo‘l qo‘ygan bo‘lamiz va bu ilmiy odob-qoidlariga ko‘ra qat’iy qoralanadi. Agar “Moziyg‘a qaytib ish ko‘rishlik xayrlik, deydilar”, degan fikr bilan o‘quvchi tanish bo‘lmasa, biz qavs ichida ana shu manbaga havola bermasak, fikrimiz ishonchsiz bo‘ladi va yozilgan maqola faktik materiallari ilmiy dalillanmagan, degan ayblov bilan salbiy baholanishi mumkin.

➤ Faktik materialning manbasini ko‘rsatish ham xilma-xil bo‘ladi. Faktik material manbasi tadqiqot matni ichida (masalan: bir tilli shevada [r] ma’lum pozitsiyalarda.... Tushib qoladi....11) deymizda adabiyotning iqtibos raqamini qo‘yamiz. Adabiyotning iqtibos raqami kompyuterda “chocka” degan ko‘rsatgich orqali bajariladi va biz bu raqamni havola belgisini qo‘yanimizda sahifa tagida o‘scha raqam paydo bo‘ladi. Bu yuqori indeks bilan yoziladi. Bizning taqdimotimizda ana shu yuqori indeks bilan biz hozir bergan 11 raqamini berish imkonli bo‘lmaganligi uchun u oddiy sonlar bilan berildi. Yuqori indeks degani kichkina va satrning yuqorirog‘ida turgan raqamlarni bildiradi. Tajriba sinov ishlari e’lon qilinmagan bo‘lsa, boshqacha beriladi, e’lon qilingan bo‘lsa bochqacha beriladi.

➤ Tajriba sinov natijalari e’lon qilingan bo‘lsa, nashr manbasi, e’lon qilinmagan bo‘lsa, o‘tkazilgan o‘rnini va vaqtini, uni qayd etgan muassasa ko‘rsatilishi zarur. Yuqorida berilganidek, (masalan: bir tilli shevada [r] ma’lum pozitsiyalarda.... Tushib qoladi....) deymiz va havola raqamini beramiz. Sahifa oxirida Mirzayev M, albatta familiya oldin yoziladi. Ba’zilar mana shunday havolalarni shakllantirishda avval ismni ko‘rsatuvchi harfni yozib, keyin familiyani yozishadi. Bu mutlaqo noto‘g‘ri. Ilmiy tadqiqotda avval familiya, keyin ism hamda otasining

ismi berilishi mumkin. Shuning uchun *Mirzayev M. O'zbek tilining buxoro gruppa shevalari. – Toshkent: Fan, 1968. – B.35* tarzida beriladi.

➤ Dalil arxiv yoki muzey materialidan olinganda arxiv(muzey), uning joyi, fond raqami (nomi), qayd raqami ko'rsatiladi. Havoladan maqsad kitobxonning shu ma'lumotni oson topishi va tekshira olishi ekanligida. Chunki sizning tadqiqotingizni o'qigan o'quvchi tadqiqotchi bo'lishi mumkin va u sizning ana shu fikrinigiz uning uchun juda muhim bo'lganligi sababli u ma'lumot bilan kengroq tanishish maqsadida o'sha manbani qidirib topishi kerak. Manbadagi aynan keltirilgan ma'lumotni boshidan oxirigacha qidirib o'tirmasdan siz ko'rsatgan sahifa orqali aniq topa olishi kerak bo'ladi. Uning foydalanilgan sahifasi aniq ko'rsatilishi kerak. Agar siz yuqorida aytgan Mustaqin Mirzayevning kitobida foydalanilgan o'rinni 35 emas, 45 deb berib qo'yadigan bo'lsangiz o'quvchi siz aytgan dalilning tagiga yeta olmaydi va siz bu yerda manbani noto'g'ri ko'rsatganlikda ayblanasiz. Shuning sahifalarni ko'rsatishda juda aniqlikka erishing. Juda e'tibor bilan qayta-qayta tekshirib ko'rib chiqish lozim bo'ladi.

II. Ilmiy ishda havolalarning ikkinchi turi ham juda muhim va ilmiy tadqiqotlarning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Chunki ilmiy ishda o'zga tadqiqotchilarни ishlariga, fikrlariga asoslanilmagan tadqiqot ishonarli tadqiqot hisoblanmaydi. Sababi sizning maqolangiz boshidan oxirigacha ilmiy yangilikdan iborat bo'lmaydi. Siz biror g'oyani ilmiy maqolaga, dissertatsiyaga, bitiruv malakaviy ishiga aylantirib, ilmiy tadqiqot darajasiga olib chiqayotganingizda o'zga tadqiqotchilarning fikrini mukammal o'rganib chiqishingiz kerak bo'ladi. Biz yuqorida ilmiy tadqiqotni yozishdan oldin tadqiqotchi qanday tayyorgarlik jarayonini bosib o'tishi kerakligi haqida gapirganimizda bunga alohida to'xtalgan edik. Shunday qilib, ilmiy ishda havolaning ikkinchi turi – tadqiqotchilar ishiga, fikriga ishora. Bunday havola ilmiy tadqiqotda, asosan, uch ususda:

- a) sahifa osti izoh: ko'rgan bo'lsangiz, ilmiy tadqiqotlarda iqtibos olinganda uning manbasi shu sahifaning tagida beriladi. Buning qulay tomoni shundan iboratki, o'quvchi maqola matni bilan tanishayotgan paytda iqtibosga duch kelgandan keyin qiynalmasdan sahifa ostiga qaraydi va u yerdan manbani aniq ko'rib oladi;
- b) matn ichida ajratilgan izoh;
- c) bob (bo'lim, tadqiqot) oxirida keltirilgan izoh berilishi mumkin.

Ilmiy ish, fikrlar manbasi ham ilmiy tadqiqotda 4 turda bo'ladi:

1) sahifa tagida muallif, asari, nashriyoti, nashr yili, zarur beti to'liq ko'rsatilgan holda beriladi: *Mirzayev M. O'zbek tilining buxoro gruppa shevalari. – Toshkent: Fan, 1968. – B.35.* Bu usulning qulay tomoni uning sahifaning tagida yaqqol ko'rinish turganligi va tadqiqotchi uni qiynalmasdan topishi bo'lsa, noqulay tomoni esa yanada kengroq hajmni egallahga olib keladi.

2) raqamlash usuli bilan: bu yerda 42 ilmiy tadqiqotning oxirida keltirilgan foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidagi 42-adabiyotni bildiradi. Demak, *Mirzayev M. O'zbek tilining buxoro gruppa shevalari* adabiyotlar ro'yxatida 42-o'rinda turibdi. Vergul esa undan keyingi ko'rsatilayotgan sahfani kitobning tartib raqamidan manbaning tartib raqamidan ajratib turadi. Ya'ni 42-adabiyotning 35-sahifasi. Bu tarzda berishning qulay tomoni shundan iboratki, bu matnning ichida ketadi sahifa ostida berilmaydi. Bu joyni tejashta, maqola hajmida belgilangan qoida va talablarga roiya qilishga ko'proq imkoniyat beradi. Uning noqulay tomoni shundan iboratki, sizning tadqiqotingizni o'qiyotgan kishi hadeb har bir mana shunday o'rtaligida raqamlar kelgan paytda adabiyotlar ro'yxatiga qarab, uyerdan mana shu, deylik, 42-adabiyotni qidirib topishi kerak.

3) muallif va bositgan yilini ko'rsatish ko'rsatuvchi qisqartma holida berilishi mumkin. Masalan: yuqorida aytildiyan adabiyot 1968-yilda chop etilgan va biz uning 35- betidan foydalanganimiz. Demak, Mirzayev, 1968, 35. Bugungi kunda ilmiy tadqiqotlarga havola berishning 3ta asosiy shakllari bordir. Shuningdek, tadqiqotchilar ularning istaganidan

foydalanishi mumkin. Lekin chop etilayotgan ilmiy to‘plamlarda, ilmiy jurnallarda mana shu havolalar berishning aynan bittasi talab qilinishi ham mumkin. Ko‘pincha ikkinchi, raqamlash usuli bilan havola berish talab etiladi. Bu maqola hajmini ixchamlashtirishga olib kelganligi uchun va nashriyot ishlarida havolalarni sahifa tagida berishdan ko‘ra qulay bo‘lganligi uchun talab etiladi.

Foydalaniłgan adabiyotlar:

1. Peregulov L.V., Saidov M.X., Aliqulov D.E. Ilmiy ijod metodologiyasi. – Toshkent: “Moliya” nashriyoti, 2002.
2. Yusufbekov.N.R., Muhammedov B.E., G‘ulomov Sh.M. Texnologik jarayonlarni boshqarish sistemalari. – Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyoti, 1997.
3. Asilova G.A. Ilmiy Tadqiqot faoliyati asoslari. Uslubiy qo‘llanma. – Toshkent. 2020.
4. <http://www.vak.uzsci.net>
5. <http://dissertatsija.com/>